

SCIENCE

PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 11

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемурастов Махмут Ажимурастович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳақимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Kucharov Jamshid Qulnazarovich

ROSSIYANING PAXTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (TURKISTON TO'PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA) 11-14

Taʼbaev Amirbek Ashirbaevich

Б.Х.КАРМИШЕВА АСАРЛАРИДА “ИЛК ҚАБИЛАЛАР”ГА ОИД ЭТНОНИМЛАР МАСАЛАСИ 15-23

Ҳамаев Нодирбек Мўминович

ТУРКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ УЧУН КУРАШНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ ВА УНИНГ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ (1920-1924) 24-32

Tilavova Shahnoza Salohitdinovna

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING FAOLIYATI 33-36

Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич

НАМАНГАНДА ҚОЗИЛАР ВА СУДЛАР ТАРИХИ 37-42

Артикбаев Ойбек Салимахамаатович

ЎЗБЕК-ҚОЗОҚ ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИНИНГ ОИЛАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (XX АСР ТОШКЕНТ ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 43-56

Atavullayeva Shaxlo Musoyevna

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI ... 57-62

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Қўчқаров Файзулло Абдужабборович

ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР – АГРАР СОҲАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ 63-70

Shao Junling

ANALYSIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S REGIONAL ECONOMY .. 71-76

Ashirov Nurmurod Qulmatovich

RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN KENG KO'LAMDA FOYDALANISHDA BANK TIZIMINI IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO'LLARI 77-82

Togayev Salim Sobirovich

BANK XIZMATLARIGA BO'LGAN ISHONCHNI OSHIRISH YOHUD MIJOZNI JALB QILISHNING SAMARALI YO'LLARI 83-89

Саттаров Ғанижон Озодович

МИНТАҚА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ОМИЛЛАРИ 90-96

<i>Yakubova Samira</i>	
LEVERAGING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: STRATEGIES FOR OPTIMAL INVESTMENT FINANCING	97-102
<i>Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI LOYIHALARNI BOSHQARISH OFISI	103-109
<i>Egamberdiyeva Salima Rayimovna</i>	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	110-118
<i>Xolmamatov Diyor Haqberdievich</i>	
SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH	119-127
<i>Gafurova Dilshoda</i>	
INNOVATIVE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: ASSESSING STRATEGIES AND IMPACTS	128-132
<i>Xomidov Abdugaffor Axmadjonovich</i>	
TA'LIM SOHASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH	133-139
<i>Raxmonov Mirvoxid Rajabovich</i>	
NAVOIY VILOYATI ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSIYALAR TUZILISHI VA DINAMIKASI TAHLILI	140-149
<i>Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li</i>	
DON VA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SNW TAHLIL USULINING O'RNI VA UNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI	150-159
<i>Aziza Umarova</i>	
AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING HORIJ TAJRIBASI	160-167
<i>Абдуллаев Бунёд Ўткирович</i>	
СУРХОҲДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	168-178
<i>Matjonov Bekjon Ravshonbekovich</i>	
SOME CHARACTERISTICS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN	179-185
<i>Алиматова Наргис Абдухалиловна</i>	
КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ-РАҚОБАТБАРДОШЛИК ОМИЛИ.....	186-197

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Kobulniyazova Gulchexra Toshpulatovna</i> F. NITSSHE “HAYOT FALSAFASI” KONSEPSIYASI IJTIMOY RIVOJLANISHNING IRRATSIONAL ASOSI	198-204
<i>Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich</i> INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOY TABIATI	205-211
<i>Турсунов Лочин Эркинович, Хакимова Дилноза Юсуфхоновна</i> РАЗВИТИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ У ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ	212-218
<i>Urinboyev Dilmurod Tura o'g'li</i> HUQUQIY FAOLLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI.....	219-225
<i>Яздонов Зикирилло Шукуруллоевич</i> АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ СЎФИЁНА ҚАРАШЛАРИ ВА МАЛОМАТИЙЛИККА МУНОСАБАТИ	226-231
<i>Nabiyev Maxsud Abdumannonovich</i> IQTISODIY MADANIYATNING MAZMUNIVAMOHIYATI	232-238
<i>Haydaraliyev Shuhratjon</i> MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	239-243
<i>Хамраев Сардорбек Шарафутдинович</i> ЭКОТУРИЗМ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ..	244-250
<i>Xashimov Sheraxon Jo'raxonovich</i> O'ZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TURIZMDAGI EKOLOGIK TURIZMNING TUTGAN O'RNI	251-260
<i>Хатамова Рашида Закиржановна</i> ПАТРИОТИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ	261-266
<i>Патиев Холдор Икромович</i> ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ	267-275
<i>Ismoilova Hayitxon Maxammadjonovna</i> FARG'ONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY JARAYONLARDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI	276-280
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i> GLOBALLASHUV VA OILA AXLOQIY MADANIYATINING O'ZARO ALOQADORLIGI	281-287
<i>Raxmankulov Farhod Raximkulovich</i> MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOY MAS'ULIYAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	288-292
<i>Shirinov Anvar Qanoatovich</i> MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI	293-299

Xandamova Marifat Akramovna
 “OSOR AL-BOQIYA” – ABU RAYHON BERUNIY ILMIIY IJODINING DURDONASI..... 300-304

Teshaboev Muhiddin Marifovich
 IJTIMOIIY DAVLATDA IJTIMOIIY ADOLATNI TA’MINLASH VA IJTIMOIIY INSTITUTLARNING
 MAQSADI 305-311

Karimov Rahmat Rahmonovich, Bekbayev Rauf Rustamovich
 MADANIY ANTROPOLOGIYA FANINING PREDMETI VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR
 TIZIMIDAGI O’RNI 312-320

Talapov Baxriddin Alijanovich
 DEMOKRATIYA VA SHARQONA BOSHQARISHNING ETNODIFFERENSIAL
 XUSUSIYATLARI 321-326

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Ayuzmuratova Nurjamal Dastembayeva
 КАРАКАЛПАКСКИЕ ЖЕНСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА..... 327-332

Olga Filippova
 ADDING REDUNDANCY FUNCTIONS TO CLUSTERED IMPLEMENTATION 333-345

Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi
 INGLIZ TILIDAGI RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING O’ZBEK TILI O’ZLASHISH
 MASALALARI 346-351

Narzieva Gulnoza Akbarovna
 LEKSIK BIRLIKLARDA MILLIY – MADANIY KOD IFODASI 352-357

Qodirova Mukaddas Tog’ayevna, Ibragimova So’g’diyona Ikrom qizi
 INGLIZ-O’ZBEK TILLARIDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TABULARINING
 QO’LLANILISHI 358-362

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Tўраев Сардор Абдихаким ўғли
 ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ
 ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ 363-371

Атаев Шокир Куранбаевич
 ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ
 АСОСЛАРИНИ ЯНАДА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ 372-377

Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич
 ҲУҚУҚИЙ АНИҚЛИК ПРИНЦИПНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ
 ХУСУСИДА 378-385

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Adizova Nigora Baxtiyorovna
 MUAMMOLI TA’LIM ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING DIVERGENT
 TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH 386-390

<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARI TALABALARINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ISPAN TILINI O'QITISHDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH	391-400
<i>Uralova Muxabbat Sanjar qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	401-406
<i>Kenjabaev Jahongir Abdusalimovich</i> METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON INTERNET RESOURCES	407-411
<i>Abdusamatov Alisher Sobirovich</i> TA'LIMNI LOYIHALASHTIRISH JARAYONIGA SEMIOTIK YONDASHUV	412-417
<i>Ibragimova Ehtiyotxon Ismailovna, Sobirova Nargiza Numonjonovna</i> TA'LIMDA NOVERBAL VOSITALARNING O'RNI	418-422
<i>Babayeva Maxfuza Abduvaitovna</i> TA'LIMDA FANLARARO BOG'LANISHNING AHAMIYATI	423-429
<i>Nazarova Zarrina Allaberdiyevna</i> MAKTAB O'QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	430-435
<i>Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna</i> O'QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART- SHAROITLARI	436-442
<i>Умаров Азиз Авазович</i> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	443-447
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i> INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI(STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA).....	448-453
<i>Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna</i> DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI YUZAGA CHIQRISH METODIKASI	454-461
<i>Komilov Nodirbek Bokijonovich</i> THE IMPORTANCE OF THE HISTORY OF MEDICINE IN INCREASING THE EXCLUSIVE COMPETENCE OF FOREIGN STUDENTS	462-466
<i>Sapieva Nargiza Mamayusufovna</i> IQTIDORLI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH	467-478
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i> XORIJIY FANLARDAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIGINING DIAGNOSTIKASI	479-484

<i>Mamatkodirov Maxammadali Mamatisakovich</i> SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR UCHUN RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARNI HAMDA O'QITISH USULLARINI TANLASH	485-492
<i>Irgasheva Umida Raimjanovna</i> TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	493-498
<i>Turayeva Lolaxon Yuldashevna</i> ERKIN MEXANIK TEBRANISHLARNI MAPLE DASTURIY VOSITASI YORDAMIDA O'RGANISH VA NAMOYISH ETISH	499-505
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i> TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	506-510
<i>Kenjabayeva Dilafruz Abdisalimovna</i> OLIY O'QUV YURTI SHAROITIDA ZAMONAVIY O'QITUVCHINI TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK KOMPONENTI	511-518
<i>Xasanova Gulnoza Raxatjanovna</i> KREDIT-MODULLI TA'LIM TIZIMI JARAYONIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI	519-525

09.00.00- Фалсафа фанлари

Xandamova Marifat Akramovna
Samarqand davlat chet tillar instituti

"OSOR AL-BOQIYA" – ABU RAYHON BERUNIY ILMİY IJODINING DURDONASI

Annotatsiya. Beruniyning eng muhim asarlaridan biri uning "Osor al-boqiya" asari bo'lib, unda geografiya, astronomiya, fizika va matematikaga oid ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Bu ishda u o'z kuzatishlari va o'lchovlarini tavsiflaydi, shuningdek, o'z hisob-kitoblari natijalarini beradi. Beruniy turli xalqlar, jumladan, yunonlar, forslar, hindlar, xitoylar tarixi va madaniyatini ham o'rgangan. Ayniqsa, islom tarixi va islom falsafasiga qiziqib, uning bu sohadagi faoliyati keng e'tirof etilgan va yuksak baholangan.

Kalit so'zlar: Ma'mun akademiyasi, Beruniy, islom falsafasi, "Osor al-Bakiya", meros.

Khandamova Marifat Akramovna
Samarkand State Institute of Foreign Languages

"OSOR AL-BAQIYA" – A MASTERPIECE OF ABU RAYHAN BERUNI'S SCIENTIFIC CREATION

Abstract. One of Beruni's most significant works is his work "Osor al-Bakiya", in which he provides numerous data on geography, astronomy, physics and mathematics. In this work, he describes his observations and measurements, and also gives the results of his calculations. Beruni also studied the history and culture of various peoples, including the Greeks, Persians, Indians and Chinese. He was particularly interested in Islamic history and Islamic philosophy, and his work in this field was widely recognized and appreciated.

Keywords: Ma'mun Academy, Beruni, Islamic philosophy, "Osor al-Bakiya", heritage.

Хандамова Марифат Акромовна
Самаркандский государственный институт иностранных языков

«ОСОР АЛЬ-БАКИЯ» – ШЕДЕВР НАУЧНОГО ТВОРЕНИЯ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

Аннотация. Одним из наиболее значимых трудов Беруни является его работа «Осор аль-бакия», в которой он приводит многочисленные данные о географии, астрономии, физике и математике. В этой работе он описывает свои наблюдения и измерения, а также приводит результаты своих вычислений. Беруни также изучал историю и культуру различных народов, включая греков, персов, индийцев и китайцев. Он особенно интересовался исламской историей и исламской философией, и его работы в этой области были широко признаны и оценены.

Ключевые слова: Академия Мамуна, Беруни, исламская философия, «Осор аль-бакия», наследие.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I11Y2023N40>

Kirish. Abu Rayhon Beruniy davri – bu X asrning oxirgi choragidagi va XI asrning birinchi yarmi bo'lib, bu asrlarda, ulardan avvalgi IX asr bilan birgalikda, islom mamlakatlarida,

ayniqsa uning Yaqin Sharq, Movarounnahr va Xuroson qismlarida ilm-fan, falsafa, adabiyot, madaniyat va ishlab chiqarish gurkirab rivojlandi.

Markaziy Osiyoda jumladan, Xorazmda tabiiy-ilmiy tafakkur, bu yerdagi ijtimoiy hayotning in'ikosi sifatida, qadim zamonlardan beri rivojlanib keladi. Islom dini esa Movarounnahr va Xorazm xalqlari hayotining barcha jabhalariga kirib bordi. Islom dini va arab tilidan foydalanish esa Movarounnahr va Xorazm xalqlari hayotining va ilm-fanining xalqaro ahamiyat kasb etishiga olib keldi.

Abu Rayhon Beruniy haqida so'z ketganda, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'sir ko'rsatgan mazhablar va g'oyaviy-falsafiy oqimlar haqida ham to'xtalib o'tishni lozim deb o'ylaymiz. Asosiy to'rt sunniylik mazhabidan tashqari VIII asr boshlaridayoq islom qa'rida o'z davri uchun yangi bo'lgan mu'taziliya g'oyaviy-falsafiy oqimi paydo bo'ldi. Bu oqimning asoschilaridan biri Vasil ibn Atta (699-748) yangi oqim avvalgi to'rt mazhabdan og'ishini (i'tazala – og'moq, shundan mu'taziliya) tan olib, uni shunday atagan edi. Tez orada mu'taziliya ilk Abbosiy xalifalar davrida xalifalikning markazi Bag'dodda va uning shimoliy va sharqiy yerlarida katta g'oyaviy kuchga aylandi. Mu'taziliya ta'limoti bilan shug'ullangan yirik mutaxassis G.Shteyner bunday yozgan edi: "mu'taziliya sunniylikning ichiga singib, u islomni yangi g'oyaviy elementlar bilan sug'organligi uchun katta tarixiy qiziqish uyg'otadi" [1:5].

Adabiyotlar tahlili. IX-XII asrlar Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining madaniy va siyosiy hayotidagi muhim bir davr hisoblanadi. Bu davrda bir vaqtlar arab xalifaligi tarkibiga kirgan mamlakatlarda yuksak madaniy taraqqiyot va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ro'y bergan ediki, hatto uni islomning ilk asrlardagi rivojlanishi bilan solishtirib bo'lmas edi. Tarixchi olimlar bu davrni har tomonlama tahlil etib, Musulmon Renessansi deb atadilar. IX-X asrlarda Bag'dodda va xalifalikning boshqa shaharlarida ijod qilgan olimlarning ko'pchiligi Markaziy Osiyolik bo'lib, xalifalikka tobe bo'lgan yerlarda mahalliy xalqlarning madaniy, ilmiy an'analari uyg'onib, yangi – "islom madaniyati" libosida yuzaga keladi [2:7].

Bag'dodda bo'lganidek, Markaziy Osiyoda ham XI asr boshida Xorazm poytaxti Gurganchda yirik ilm o'chog'i vujudga keldiki, keyinchalik bu tarixda "Ma'mun akademiyasi" nomi bilan butun Sharqda mashhur va ma'lum bo'ldi. Ma'mun akademiyasi qisqa vaqt ya'ni 1004-1017 yillarda faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, buyuk siymolarni yetishtirdi. Abu Rayhon Beruniy mana shunday allomalardan biri hisoblanadi va olimlar jamoasining yetakchisi edi.

Maqolamizga asos qilib olingan "Osor al-boqiya" asari arab tilida yozilgan bo'lib, uning to'liq arabcha nomi "Al-osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya" deb ataladi. Yevropada "Xronologiya" nomi bilan mashhurdir. Bu kitobning birinchi o'zbekcha nashri "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" [3] deb tarjima qilingan va keyinchalik adabiyotlarda o'rnashib qolgan. Shuningdek, arabcha atamani "Osor al-boqiya", o'zbekchada esa "Yodgorliklar" deyish ham mumkin. Ushbu asarning ko'pgina qo'lyozmalari bizgacha yetib kelgan bo'lib, ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Bu asarni birinchi marta Yevropa sharqshunoslariga tanishtirgan yirik nemis sharqshunos olimi Eduard Zaxau (1845-1930) hisoblanadi. U 1876-1878 yillarda Leypsigda "Osor al-boqiya" asarining arabcha nusxasini ilk bor nashr ettirdi [4]. Zaxau ushbu asarni nashrga tayyorlashda o'sha vaqtda mavjud bo'lgan to'rtta qo'lyozmadan foydalangan.

1879 yili Zaxau "Osor al-boqiya"ning ingliz tilidagi tarjimasini hamda Beruniyning tarjimai holi va izohlar ilova qilgan holda nashrdan chiqardi [5]. 1943 yili Tehronda "Osor al-boqiya"ning fors tilidagi tarjimasini Akbar Dono Sirisht Sayrafiy tomonidan nashr etildi [3:13].

Ushbu tarjima Zaxauning arabcha tarjimasi asaosida amalga oshirilgan edi. Bu nashrning fotonusxasi O'zFA Sharqshunoslik institutida, inv №69 raqami bilan saqlanmoqda.

E.Zaxau nashridagi matnidagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun boshqa bir nusxa lozim edi. Shunday nusxa 1912 yili Peterburg Fanlar Akademiyasining Osiyo Muzeyidan (hozirgi Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sank-Peterburg bo'limi) topildi. Bu qo'lyozma Sankt-Peterburgga Tehrondagi rus diplomatiyasining vakili L.Bogdanov tomonidan yuborilgan edi. L.Bogdanov qo'lyozmasi D-58 raqamida hamda ushbu qo'lyozmaning mikrofilmi №35 raqami ostida, O'zRFA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Ammo qo'lyozmadagi ayrim boblar to'liq emas.

Istanbul qo'lyozmasiga ilk bor nemis arabshunoslari – gamburglik Karl Garbers [6:45-68] va gallelik Iogan Fyukk [7: 69-98] murojaat qiladi. Bu ikkala nashrning mikrofilmi Sharqshunoslik institutida № 342 (I-II) raqami bilan saqlanadi.

Muhokama. “Osor al-boqiya”ni 1957 yilda marhum arabshunos olim M.A.Salye birinchi marta rus tiliga tarjima qildi [8:516]. Olim ushbu nashrni amalga oshirishda ingliz nusxadan, Leningrad va Istanbul qo'lyozmalaridan foydalangan. Istanbul qo'lyozmasi, Istanbul Ommaviy kutubxonasida № 4667 raqami ostida saqlanishi aniqlangan. Rossiyada bu qimmatbaho asar bilan o'z vaqtida akademik I.Yu.Krachkovskiy qiziqqan edi. U o'zining “Arab qo'lyozmalari ustida” nomli mashhur asarida 1910 yillarda Petrograd Osiyo muzeyida sotib olingan XIII asrga oid qo'lyozma bilan qiziqqan, bundan Zaxau nusxasini to'ldiradigan o'rinlarini ko'chirib olgani va bularni nashrga tayyorlashni mo'ljal qilib qo'yganligi eslatib o'tadi [8:63]. Lekin buni amalga oshirishga I.Yu.Krachkovskiy muyassar bo'lmadi. U o'zining “al-Beruniy va Sharqning XI asrdagi geograflari” nomli asarida “Yodgorliklarga” juda yuksak baho beradi va bu kitob haqida qimmatli fikrlarni aytib o'tadi [9:244].

O'zbek beruniyshunos olimlari tomonidan ham “Osor al-boqiya” asari o'rganilgan bo'lib, professor A.Ahmedov tomonidan ushbu asar rus [10:664] va o'zbek tillarida to'ldirishlar, izohlar va sharhlar bilan nashr etildi [11:648].

Yuqorida keltirilganidek, bu asar olimning eng birinchi yirik asari bo'lib, u muqaddima va 21 bo'limdan iborat bo'lib, Beruniy asarda o'ziga ma'lum bo'lgan xalqlar: yunonlar, rumliklar, eroniylar, sug'diylar, xorazmliklar, harroniylar, qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha bo'lgan arablar va musulmonlarning yil hisoblari, hayitlari va mashhur kunlarini mufassal tasvirlab beradi. Beruniy islom mutafakkirlari ichida birinchi marta yahudiylar kalendari haqida tizimli ma'lumot beradi.

Abu Rayhon Beruniyning asarlarida dinlar qiyosiy tahlil qilingan bo'lib, ayniqsa, allomaning “Osor al-boqiya”, asarida bu mavzuga juda keng to'xtalib o'tilgan. Ahmad Zaki Validiy Beruniyning “Osor al-boqiya” asarini Islom dunyosidagi qiyosiy dinshunoslikka oid eng sara asarlar qatoriga kiritgan edi [12: 142].

“Osor al-boqiya” asarining XIV bobi yahudiylar nishonlaydigan bayramlarga bag'ishlangan bo'lib, Beruniy yahudiylarning tili, dini va urf-odatlarini bilan yaxshi tanish bo'lgan. Beruniy Falastinda bo'lmagani va VIII-X asrlarda Xorazmning hududlari Kaspiy dengizining sharqiy va shimoliy sohillarini ham o'z ichiga olib, Shimoliy Kavkazda joylashgan Xazariya bilan chegaradosh bo'lganini e'tiborga olsak, Beruniy yahudiylik haqidagi ma'lumotlarni o'sha Xazariyadan olgan bo'lishi mumkin, chunki Xazariyada yahudiylik dini davlat dini edi. Shuni aytish lozimki, buyuk olimning yahudiylar dini va urf-odatlariga bunday katta ahamiyat berishidan Xorazmning o'zida ham, masalan, Xazariya bilan chegaradosh qismlari, Kaspiy

dengizining chap sohillarida ham yahudiylilik bo'lgan, degan fikr keladi. Maqolamizning bu bo'limida yahudiylarda shanba kuni nima uchun muqaddas ekanligi Beruniyning keltirgan misollar orqali tahlil etdik.

Natijalar. “Osor al-boqiya” asaridayoq, Beruniy o'zining tabiiy-ilmiy qarashlarida tabiatning, undagi hodisalarning voqeligini aynan shunday tushunish nuqtai nazarida turgan. O'sha vaqtlardayoq Beruniy barcha tabiat hodisalari va ilmiy muammolarni Qur'on asosida talqin etuvchi, yoki barcha tushuntirishlarni qandaydir g'ayritabiiy kuchlarga, ilohiylikka bog'lovchi sxolastik fan bilan kurash olib borgan.

“Osor al-boqiya” asarida tarixiy voqealar hamda turli elat va diniy qarashlarga oid ma'lumotlar berish bilan bir qatorda, olam yaralishi va undagi turli tabiiy hodisalar to'g'risida bir qancha ilmiy nazariyalarni ilgari surgan. Shuningdek, alloma olam manbasi “tuzilish va buzilish”dan iboratdir deydi. Olamning vujudga kelishi masalasida “Olam azaliy, falak esa cheksiz bo'shliqqa joylashgandir” [3:26-27], degan realistik qarashlarni ilgari suradi.

Allomaning “Osor al-boqiya” asarida jamiyatning vujudga kelishi sabablarini bashariyat tarixi bilan bog'laydi. “Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir. Kitob ahllari bo'lmish yahudiylar, xristianlar, otashparastlar va bularning barcha sinflarida bashariyatning boshlanishi va uning tarix boshi qilib olinishi xususida shunday ixtiloflar mavjudki, tarixlar haqida bu kabi xilma-xillik bo'lishi mumkin emas” [3:50], – deb ko'pgina tarixiy voqealarning noto'g'ri talqin etilganligini isbotlashga harakat qilib, ularni qiyosiy tahlil etgan.

Akademik P.G.Bulgakov “Osor al-boqiya” asarini tahlil etar ekan uning fikriga ko'ra, Beruniy deizm pozitsiyasida turgan, falsafaning ham mahalliy, ham ellinistik, avvalo Aristotel va atomistlarning ilg'or konsepsiyalarining sintezi va progressiv rivojlanishiga asoslangan. Beruniyning fikricha, yaratuvchi — xudoning bo'lishi zarurdir, u butun olamning birinchi harakatlantiruvchisidir. Biroq, olam xudo tomonidan yaratilgan va harakatga keltirilgan bo'lishiga qaramay, keyinchalik tabiat qonunlari asosida rivojlanadi, ularni bilish esa, dinning emas, balki fanning sohasidir [13:113-114].

Xulosalar. Beruniy Sharq olimlari ichida, umuman, jahon fanida eng yirik siymolardan biri hisoblanadi. Uning ijodi va ilmiy merosi nafaqat allomaning buyuk iste'dod va qobiliyatining, balki Sharq Renessansi deb atalgan jahon miqyosidagi ulkan hodisaning noyob va beqiyos hosilasidir. Qolaversa, Beruniy faqat o'z davrining farzandi bo'lib qolmasdan, ayni paytda o'rta asrlarning ma'naviy-ilmiy qiyofasini va ulkan yutuqlarini belgilab bergan ulug' mutafakkir ulug' siymolardan biridir. Ma'lumki, Sharq Renessansining u yoki bu davrlarida diniy tolerantlik va hurfikrlikni yoqlash va targ'ib etish imkoniyati ana shu tarixiy bosqichga xos noyob hodisalar sirasiga kirgan. Allomaning shaxsiy jasorati, ilg'or ilmiy tahlil va tadqiqot tamoyillari, izchil va obyektiv falsafiy qarashlar tizimi ham uning ilohiyotga oid g'oyalarining shakllanishida muhim omil bo'lgan.

Beruniy qarashlarida aks etgan diniy bag'rikenglik, boshqa din vakillariga nisbatan hurmat-ehtirom, o'zaro ishonch tuyg'ulari bilan yo'g'rilgan g'oyalar allomaning ilmiy, ma'naviy merosida yaqqol aks etganligini yoritish milliy falsafani rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Beruniyning tolerantlik va baynalminallik, insonparvarlik kabi fazilatlari, qadriyatlar hamda hurfikrlik g'oyalari, ijtimoiy-falsafiy qarashlari jamiyatimizning bugungi kundagi ma'naviy yuksalishiga muhim turtki bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References

1. Steiner, H. (1865). Die Mutaziliten und die Freidenker in Islam. – Leipzig.
2. Хоразмий, Муҳаммад ибн Мусо. (1983). Танланган асарлар. Математика, астрономия, география. – Т.: Фан.
3. Беруний, Абу Райҳон. (1968). Осор ал-боқия (Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар). Танланган асарлар. Том.I. / Таржимон А.Расулов. изоҳлар. И.Абдуллаев ва А.Расулов. Тошкент: Фан.
4. Sachau, Edward. (1878). Chronologic Orientalischer Volker von Albiruni herausgegeben. Leipzig.
5. Sachau, Edward. (1879). The chronology of Ancient Nations. London.
6. Garbers K. (1952). Eine Ergänzung zur Sachauschen Ausgabe von al-Birunis "Chronologie orientalischer Volker". Der Islam, Db. 30, Heft 1 (Januar).
7. Fuck F. (1952). Sechs Ergänzungen zu Sachaus Ausgabe von al-Birunis "Chronologie orientalischer Volker". Documental islamica inedita, Berlin.
8. Бируни, Абу Рейхан. (1957). Избранные произведения, Т. I, «Памятники минувших поколений», Ташкент: Изд-во АНУзССР.
9. Крачковский И.Ю. (1955). Избранные сочинения. Т. I, М.- Л.
10. Беруни, Абу Райхан. (2015). Памятники минувших поколений (Хронология). Перевод с арабского М.Салье. Дополнения, исправления, подготовка к печати, а также вводная статья, комментарии и указатели А.Ахмедова. Тошкент: Фан.
11. Беруний, Абу Райҳон. (2022). Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ал-боқия). Танланган асарлар I. А.Расулов таржимаси асосида қайта ишлаб, тўлдириб, нашрга тайёрловчи, кириш мақоласи ва изоҳлар муаллифи А.Аҳмедов. Тошкент: "Ўзбекистон".
12. Togan, Zeki Velidi. (1940). Birunis Picture of the World. -New Delhi. X, - (Memoirs of the Archaeological Survey of India. Vol. 63).
13. Булгаков П.Г. (1972). Жизнь и труды Беруни. – Т.: Фан.
14. Сафаров, А. И., & Ризаев, И. И. (2022). Роль исторического сознания и исторической памяти в системе национального сознания. In Культурное наследие и народное искусство: сохранение и актуализация в целях устойчивого развития общества (pp. 297-303).
15. Abdelmajid Charfi, Nurlan Amanovich Namatov, & Bakhtiyor Omanovich Turaev. (2022). The rise of Islam. International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 2(2), 121–132.
16. Сафаров, А. И., & Хаккулов, Н. К. (2019). Свойственные качества совершенному человеку в суфизме. In Современная наука как социально-политический фактор развития государства (pp. 48-50).
17. Мардонов, Р. С., & Ризаев, И. И. (2022). Проблемы в инновационном развитии (на примере Узбекистана). In Географические и экономические исследования в контексте устойчивого развития государства и региона (pp. 244-246).
18. Namdamova, M., & Turobov, B. (2020). An introduction to ancient philosophy in Beruni's works. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 676-681.
19. Кушаков, Ш. С. (2001). Проблема духовного в теологии и философии мусульманского Востока. Исламская культура и мировая цивилизация/под ред. ДА Гущина, ЮН Солонина, М. Санаи. СПб.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).